

O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING SAMARALI TASHKIL ETILISHI, ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI

Sherdil Maxsudov

Jidu xalqaro munosabatlar fakulteti ikkinchi bosqich talabasi,

Email: sciencemaxsudov@gmail.com

Xusenov Alisher

Annotatsiya. *Mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishini doimiy ta'minlash, aholining moddiy, huquqiy va ma'naviy ehtiyojlarini qoplash, davlat va jamiyat o'rtasidagi uzviy hamkorlikni ushlab turish va mustahkamlash davlat boshqaruvi tizimini zamon talablariga moslab tashkil etishni, zarur o'zgartirish, qo'shimchalar va islohotlarni hayotga tatbiq etish kabi hayotiy masalani o'rta qo'yadi. Maqolada O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimining tarixiy asoslari bilan bir qatorda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, tizimga raqamli texnologiyalarning olib kirilishi, davlat xizmatlari sifatining oshishi va kelajakdagi ehtimoliy islohotlar muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar. *Davlat boshqaruvi, Davlat xizmatlari markazi, islohot, davlat boshqaruvi organlari.*

Аннотация. *Обеспечение всестороннего и устойчивого развития нашей страны, удовлетворение материальных, правовых и духовных потребностей населения, поддержание и укрепление органичного взаимодействия между государством и обществом требуют организации системы государственного управления в соответствии с требованиями времени, а также реализации необходимых изменений, дополнений и реформ. В статье рассматриваются исторические основы системы государственного управления Узбекистана, проведённые в последние годы реформы, внедрение цифровых технологий в систему, повышение качества государственных услуг и возможные реформы в будущем.*

Ключевые слова: *Государственное управление, Центр государственных услуг, реформа, органы государственного управления.*

Annotation. *Ensuring the comprehensive and sustainable development of our country, meeting the material, legal, and spiritual needs of the population, maintaining and strengthening the organic cooperation between the state and society all necessitate organizing the system of public administration in accordance with modern requirements, as well as implementing necessary changes, additions, and reforms. The article discusses the historical foundations of Uzbekistan's public administration system, the reforms carried out in recent years, the introduction of digital technologies into the system, the improvement of public service quality, and potential future reforms.*

Keywords: *Public administration, Public Services Center, reform, public administration bodies.*

Yurtimizning ko‘p asrlik tarixi davomida davlat boshqaruvining chuqur asoslari o‘troq va ko‘chmanchi aholining diniy, ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy qadriyatlariga asoslangan holda shakllantirildi. O‘rta asrlarda Vatanimiz hududida vujudga kelgan bir qator davlatlar, xususan, Eftallar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar kabilarda boshqaruv tizimi sulolaviy ildizlar ustiga qurilgan bo‘lib, mamlakat hududi muayyan viloyat va tumanlarga bo‘lib chiqilib, bu hududlarda sulolaning ko‘zga ko‘ringan vakillari noib sifatida tayinlangan. Bu omil butun boshli davlatda yagona sulolaning hukmronligini ta‘minlab, boshqaruvni osonlashtirgan va hukmdorlarning legitimligini oshirgan. O‘z o‘rnida, har bir noib o‘z viloyati yoki tumanida yig‘ilgan soliqning ma‘lum qismini markaziy xaznaga yetkazish va harbiy harakatlar davomida qo‘shin bilan ishtirok etish majburiyatini olgan edi. Ushbu faktorlar davlat xazinasi uchun doimiy daromad manbaini yaratish bilan birga, harbiy harakatlarda aniq sondagi askariy qo‘shinni to‘plash imkonini bergan.

Boshqaruv tizimining yanada takomillashuvi o‘lkamizda Temuriylar sulolasining ko‘p yillik hukmronligi davrida yuz berdi. Bu davrda markaziy hokimiyat va viloyatlar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuv kanallarini yaratishga harakat qilindi, piyoda va otliq choparlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, bosib olingan hududlarni boshqarish masalalari bilan shug‘ullanuvchi uchta alohida vazir lavozimi joriy etildi. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va harbiy hayotini tartibga soluvchi amaldorlar guruhi shakllantirildi. Umuman olganda, mamlakatimizda siyosiy boshqaruv asoslarining yuzaga kelishi ajdodlarimizning kundalik hayoti, qadriyatlari, hayotiy va moddiy tajribalari, diniy va dunyoviy qarashlari negiziga borib taqaladi.

So‘nggi yillarda, yurtimizda davlat boshqaruvi sohasini isloh qilish, uni xalq manfaatlari yo‘lida beka mu-ko‘st xizmat qiluvchi tizimga aylantirish maqsadida qator sa’y-harakatlar amalga oshirildi. Bulardan biri – har bir tuman va shahar kesimida tashkil etilgan Davlat xizmatlari markazlaridir. Davlat xizmatlari markazlarining mamlakat miqyosida tashkil etishning huquqiy asosi 2017 yil 12 dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Davlat xizmatlari markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hisoblanadi. Bu markazlar Adliya vazirligi huzurida faoliyat yuritadi.

Davlat xizmatlari markazlarining tashkil etilishi quyidagi samarali natijalarga olib keldi:

- Barcha davlat xizmatlari tuman va shaharlar miqyosida tashkil etilgan markazlarda ko‘rsatilayotgan bo‘lib, bu esa, aholining turli davlat tashkilotlarida sarson bo‘lishdan to‘xtatib, qator hujjatlarni olish, arizalar topshirish, davlat xizmatlaridan erkin foydalanish imkonini berdi.
- Davlat xizmatlari markazlarining hujjatlar bazasi butun mamlakat miqyosida hujjatlarning markazlashuviga, ularning xavfsiz va ishonchli saqlanishiga zamin yaratmoqda.
- Davlat xizmatlari markazlari tashkil etilishi ortidan O‘zbekistonda davlat xizmatlari

ko'rsatishning to'laqonli yangi standartlari joriy etildi. Ya'ni muayyan xizmatni ko'rsatishning aniq muddati, narxi, tili aniq belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, hujjatlarni my.gov.uz saytida ortiqcha navbatsiz, uzoq kutishlarsiz olish imkonini ham yaratildi.

- Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda Davlat xizmatlari markazining tashkil etilishi sohaga yanada shaffof ruh bag'ishladi. Xizmatlardan foydalanish orqali aholi vakillari malakali mutaxassislardan maslahatlar olib, o'zlarining huquqiy bilimlarini oshirish imkoniga ham egadirlar.

Davlat xizmatlarini masofaviy va elektron shaklda ko'rsatishga asoslangan my.gov.uz kabi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining bu boradagi ahamiyati ham salmoqlikdir. Portalda keltirilgan ochiq statistikaga yuzlansak, uning foydalanuvchilari soni 10,3 millionni, ko'rsatiladigan xizmatlar salmog'i esa 735 tani tashkil etadi.¹ Umuman olganda, davlat xizmatlarining aholiga sifatli ko'rsatilishini ta'minlash, ko'rsatiladigan xizmatlar sonini ko'paytirish, tizim xodimlarining malakasini doimiy oshirish, Davlat xizmatlari markazlarining boshqaruv-texnik bazasini doimiy modernizatsiya qilish va shaffofligini ta'minlash mamlakatimizning keyingi istiqboli oldida turgan juda muhim vazifa hisoblanadi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da Davlat xizmatlari markazlarining kelajakdagi rivojlanishi shunday tavsiflanadi: "Shu bilan birga, xizmatlar qamrovi va tezkorligini oshirish uchun davlat xizmatlari markazlari faoliyatini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish zarur."² Ushbu jumlar bu kabi markazlar faoliyatini kelajakda yanada zamonaviylashtirish va kengaytirish masalasi doimiy ko'rib chiqilishini anglatadi. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, uni yanada xalqchil qilish haqida qator maqsadlar ilgari surilgan. Jumladan, ushbu strategiyaning 3-maqsadida mahalliy hokimiyat organlari haqida quyidagi rejalar nazarda tutiladi:

- Joylardagi masalalarni hal etishda mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish va har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag'lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish.
- Mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish, shu jumladan hokimlarni saylash tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish.
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hududiy ijro organlarining shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini bosqichma-bosqich kengaytirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar bo'yicha "vakolatlar reestri"ni shakllantirish.
- Mahalliy boshqaruv faoliyatiga axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, hududlarning 40 dan ortiq, jumladan transport, infratuzilma, ijtimoiy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lumotlarni jamlovchi tahliliy geoportallarini ishga tushirish. Yuqorida aytib o'tilgan maqsadlarning qisqa va tushunarli sharhiga o'rin ajratsak, quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- Hokimlarning moliyaviy masalalarda ishtirokini kengaytirish hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini geografik va madaniy asoslarni hisobga olib, qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

- Sarflanayotgan mablag‘lar ustidan jamoatchilik nazoratini oshirish esa aholi vakillarining mahalliy byudjet ijrosidan xabardor bo‘lishlariga imkon yaratib, mablag‘larni suiiste’mollikdan va isrofgarchilikdan saqlaydi;

- “Vakolatlar reestri”ning amalga kiritilishi kelajakda hokim va boshqa mansabdorlarni o‘z vakolatlari doirasida faoliyat yuritishga undaydi. Shuningdek, “Vakolatlar reestri” fuqarolarning siyosiy-huquqiy bilim va madaniyatlarini oshirishlari imkonini berib, rasmiylar faoliyatini xolis baholash va nazorat qilish imkonini beradi;

- Mahalliy boshqaruv tashkilotlariga axborot texnologiyasining ishtirok va rolini yanada oshirish rasmiy idoralarda keng ma’lumotlar bazasini yaratish, yangilash va undan samarali foydalanishga yo‘l ochadi

Davr va zamon taraqqiyotining jadallashuvi, ilmiy-siyosiy, ijtimoiy va fikriy transformatsiya zamoni bizga doimiy, uzoqni ko‘zlab islohotlar amalga oshirish kabi hayotiy va mas’uliyatli vazifa yuklaydi. Shu maqsadda, kelajakda soha rivoji uchun xizmat qiluvchi islohotlarga ba’zi takliflarni berishni lozim deb topdik, jumladan:

- Rasmiy idoralar xodimlarining ishlash malakasi, shuningdek, idoraning samarali faoliyatini tekshirish maqsadida “sirli mijoz” metodidan foydalanib, tashkilotlar ish jarayonini baholash tizimini ishlab chiqish;

- Bir-birining funksiyasini takrorlovchi davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ularning xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish;

- Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish madaniyatini oshirish maqsadida qisqa va tushunarli qo‘llanmalar va roliklar ishlab chiqish, ularni OAVda doimiy targ‘ib qilish;

- Ta’lim muassasalari o‘quvchilari, talabalari va o‘qituvchilarini davlat tashkilotlari faoliyati bilan tanishtirish, ularni bo‘lajak davlat xizmatchilari sifatida tarbiyalashga harakat qilish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda boshqaruvi tizimi tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviylashtirish fuqarolarimizning huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ehtiyojlarini bekamu-ko‘st qondirishning kaliti deyishimiz mumkin. Buni amalga oshirish uchun bizga xalqimiz bilan birdamlik, qat’iyat, siyosiy iroda va mehnat talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. My.gov.uz portali statistikasi. <https://my.gov.uz/uz/statistics>
2. Mirziyoyev Sh. (2023) *Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi*. “O‘zbekiston” 71-bet
3. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <https://lex.uz/docs/-5841063>